

ONA TILI DARSLARIDA FILOLOGIK MASHQLARNING TUTGAN O‘RNI

Nursulton Shayxislamov,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

***Annotatsiya:** Ona tili ta'limida lingvistik mashqlarning o'rni, lingvistik mashqlar o'quvchilarda irodani tarbiyalashning asosiy omillari haqida.*

***Kalit so'zlar:** Lingvistik mashqlar, tarbiya, bilim, punktuatsion, fonetika, iroda, mustahkamlash.*

Til ta'limini lingvistik mashqlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ulardan ona tili o'qitishning hamma bo'g'inlarida, o'quv-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida foydalaniladi. Garchand, lingvistik mashqlarning qo'llanish doirasi keng bo'lsada, haligacha ularning hamma e'tirof etgan ta'rifi, tarkibiy qismlari, tiplari va tizimi xususida aniq tasavvurlar mavjud emas. Lingvistik mashqlar o'quvchilarda irodani tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir. Iroda, ruhshunoslamining ta'biri bilan aytganda, ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'z faoliyatini ongli tashkil etish, faoliyat jarayonida uchragan qiyinchiliklarni bartaraf etish vositalarini, usullarini izlashni taqozo etadi. O'z mehnatining maqsadini tushunish, unga erishish uchun harakat qilish, intilish bola faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, ular mashq qilish natijasida tarkib topadi. Bunga mashqlarni yetarli darajadagi qiyinchilik va murakkablikda o'tkazish yo'li bilan erishiladi. Ammo ona tili metodikasi fanida mashqlarning qiyinligi va murakkabligi masalasi haligacha o'rganilgan emas. Lingvistik mashqlardan til bilimlarini o'rganish, mustahkamlash, takrorlash, tekshirish, umumlashtirish maqsadlarida foydalaniladi. Shuningdek, ular bolalarda orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion va shu kabi malakalar hosil qilishning yetakchi omili sanaladi. Maktabda tilning fonetika, leksika hamda grammatikaga oid bilimlar va ular asosida turli-tuman nutq ko'nikmalari ustida ish qilinadiki, bularni grammatik mashqlar deyish an'anaviydir. Biroq ular tilning birgina grammatika

sohasiga tegishli bo'lganligi bois cheklangandir. Binobarin, uning istilohi o'rnida «lingvistik mashq» istilohini ishlatish ma'quldir. Lingvistik mashq yoshlarni hayotga tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi, til ta'limini amalga oshirishning yetakchi yo'li hisoblanadi. Mashq ma'lum makonda (sinfda o'qituvchi rahbarligida) va zamonda (darsda) o'tkaziladi. U ongli hayotning alohida soniyalari, hayotning o'zi demakdir. Lingvistik mashqlarning mohiyatini aniqlash maqsadida ularni yana bir tushuncha o'quv topshirig'i bilan muqoyasa qilamiz. Zero, narsa-hodisalar o'zaro solishtirilganda, ularning mohiyati aniqlanadi.

1-topshiriq. O'n ikkita so'z berilgan (in, oz, es, iz, ov, il, esh, og', ig', ek, et). Ularni qanday qilib uch guruhga ajratib yozish mumkin?

2-topshiriq. Sinonimlar qatoridagi so'zlarga zid ma'no anglatadigan antonimlarni topib yozing.

Katta —

Ulkan —

Buyuk —

Ulug' —

3-topshiriq. Matnni o'qib, sifatlarni ajratib yozing. (Katta konsert har bir yurakda sevinchli iz qoldirdi...) Yuqoridagi keltirilgan namunalarda o'quv topshirig'i nima? O'quv topshirig'i bo'yicha o'tkaziladigan mashqni qanday ajratmoq kerak? VO'quv topshirig'i mashqmi? Yoki mashq o'quv topshirig'imi? Shu xildagi savollarga javob qaytara olsak, lingvistik mashqlarning mohiyatini ham ocha bilamiz, ularga instrumental (ishchi) ta'rif ham bera olamiz. Lingvistik mashqlar boshqa tizimlarga o'xshab kompleks elementlardan iborat. Har qanday tizimning elementlari mohiyati jihatidan ikki turli bo'ladi: doimiy -asosiy, o'zgaruvchan-ikkinchi darajali. Tizimni, ayni holatda lingvistik mashqlarni barcha elementlariga ko'ra tahlil etish amrimaholdir. Shu sababli, lingvistik mashqlarning asosiy elementlarini uning tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilamiz. Lingvistik mashqlar, awalo, ochiq tizimdir. Zero, hozir o'tkaziladigan mashq oldingi mashqlarning davomi, bundan keyin o'tkaziladigan mashqlar uchun tayyorgarlik bosqichi sanaladi. Mashq qilish jarayonida bolalarning o'qish faoliyati o'tmishdan hozirga, undan kelajakka tomon

harakat qiladi. O'rganilgan bilimlardan (o'tm ishdan) ularning amaliyotga tatbiq etilishiga (hozirga) qarab borish kelajakdagi istiqbolli faoliyat uchun zamin tayyorlaydi. Mashq qilish uchun zaruriy bilimlarni esga tushirish⁶ tanlash murakkab psixik hodisa bo'lib, u bolalarda xotira, tasavvur, fikrlashni tarbiyalaydi. Masalan:

1-topshiriq. Matnni o'qib (. . .) otlarni ajratib yozing.

2-topshiriq. Matnni o'qib (. . .) sifatlarni ajratib yozing.

3-topshiriq. Matnni o'qib (. . .) fe'llarni ajratib yozing.

4-topshiriq. Matnni o'qib, otlarni birinchi, sifatlarni ikkinchi, fe'llarni uchinchi ustunga ajratib yozing.

Yuqoridagi o'quv topshiriqlari asosida mashq qilish jarayonida ishtirok etgan o'quvchi «Ot» istilohi va «Ot» to'g'risidagi o'z tasavvuri (1-topshiriq), «Sifat» istilohi va «Sifat» to'g'risidagi o'z tasavvuri (2-topshiriq), «Fe'l» istilohi va «Fe'l» haqidagi o'z tasavvurlari (3-topshiriq)ga rioya qilib mashq qiladi. O'quv topshiriqlari shartida berilgan istilohlar va ularga oid tasavvurlar (hosil qilingan bilimlar) mashq qilish jarayonida faoliyat ko'rsatkichlari vazifasini bajaradi. Agar o'quvchi lingvistik terminlar va ular ostida to'plangan o'z tasavvurlari-bilimlarni qancha aniq fahmlab, turli tushunchalarni farqlay olsa, shuncha samarali mashq qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шайхисламов, Н. (2020). Синтаксисни морфология билан интегратив ўргатиш. *Нутқ маданияти ва ўзбек тилишунослигининг долзарб муаммолари*, 383-385.
2. Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Shofqorov, A. M. (2020). RASMIY HUIJATLAR MATNINING LEKSIK XUSISIIYATLARI VA ULARNING TARJIMADA BERILISHI. *Science and Education*, 1(Special Issue 3).
3. Shayxislamov, N. (2021). Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi va vujudga kelishi. *The 21st Century Skills for Professional Activity*, (2), 274-276.

4. Kobilova, N., Shayxislamov, N., & Raimova, M. (2021). O 'ZBEK VA INGLIZ PAREMIOLOGIK BIRLIKLARINING QIYOSIY-SEMANTIK TAHLILI. *Scientific progress*, 1(4).
5. Шайхисламов, Н. (2021). ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ЙЎНАЛИШИ: КОНТАКТ ЛИНГВИСТИКАСИ. *Scientific progress*, 1(4).
6. Shayxislamov, N. (2021). Tilshunoslik nazariyasi va tushunchasi. *The 21st Century Skills for Professional Activity*, (3), 174-176.
7. Шайхисламов, Н. (2020). Лингвомәдениеттанудың тарихи мен теориялық негіздері. *O 'zbekistonda ilm-fan va ta'lim masalalari: muammo va yechimlar*,(2), 219-221.
8. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O 'ZBEK VA HORIJIIY TILLARDA ANTONIMLAR TAVSIFI, O 'RNI VA ULARNIG TURLI JIHATDAN TASNIFLANISHI. *Science and Education*, 1(Special Issue 3).
9. Shofqorov, A. M., Baykabilov, U. A., Bayzakov, J. A., & Shayxislamov, N. Z. O. G. L. (2020). TIL O 'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI. *Science and Education*, 1(Special Issue 3).
10. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanish. *Prospects of Development of Science and Education*, 1(2), 247-249.
11. Шайхисламов, Н. (2020). Фондаментхои технологияи асосии забон ва назарияи гендерӣ. *Мактабгача таълим муассасаларида, умумтаълим мактабларида ва олий таълим муассасаларида чет тиллар ўқитишининг узвийлиги*, 734-735.
12. Shayxislamov, N. (2020). Gender tilshunosligining fundamental nazariy asoslari va gender masalalari. *XXI asr tilshunosligi va tarjima shunosligining dolzarb muammolari: nazariya, amaliёт, innovatsiya*, 144-146.